



## O'ZBEK TILI FALSAFA TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI

**Abdujabborova Xilola Raxmatilla qizi**

*O'zDSMI O'zbek tili va adabiyoti*

*kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilidagi falsafa terminologiyasining shakllanish tarixiga nazar tashlanadi. Unda, asosan, qadimgi davr manbalari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Mahmud Qoshg'ariyning asarlariga murojaat qilinadi. Turkiy lug'atshunoslikning tamadduni sanalgan "Devoni lug'ot ut-turk" asari asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafa, termin, lug'at, manba, tushuncha.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история формирования терминологии философии в узбекском языке. Он относится в основном к источникам древности, в частности, к трудам Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины и Махмуда Кашгари. Основным источником послужил труд «Диван тюркских слов», считающийся основой тюркской лексикологии.

**Ключевые слова:** философия, термин, словарь, источник, понятие.

**Annotation:** This article discusses the history of the formation of the terminology of philosophy in the Uzbek language. It refers mainly to the sources of antiquity, in particular, to the works of Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina and Mahmud Kashgari. The main source was the work "Divan of Turkic words", which is considered the basis of Turkic lexicology.

**Key words:** philosophy, term, dictionary, source, concept.

Inson yaralibdiki, dunyoning yaralishi, uning mohiyati va o'zining undagi o'zni haqidagi savollarga javob topishga, bu haqiqatlarni anglashga harakat qilib kelmoqda. Bu harakatlar qadim tarixga borib taqaladi. Inson tafakkuri uchun uni o'rab turgan borliq hamisha o'rganish ob'yekti bo'lib kelgan. Dastavval inson nazariy fikrlay olmagan, nazariy xulosalar chiqara olmagan. Tafakkur tadriji natijasida asta-sekinlik bilan olam qonuniyatlarini anglay boshlagan, falsafiy tafakkur shakllana boshlagan. Bu jarayonda tilning paydo bo'lishi va rivoji muhim turtki bo'ldi. Inson tafakkurining rivoji natijasida yozuv kashf etildi va bu ham ilm-fan rivojini yanada tezlashtirdi.

Falsafa ilmlar ichida eng qadimiylaridan sanaladi. Unga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, barchasida uning yunoncha phelio-sevaman va sophiya-donolik so'zlaridan olinganligi aytiladi. Umuman olganda, falsafa olam va uning yaratilishi, yashashi, rivojlanishi, taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq hamda yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

Yurtimiz hududidagi falsafiy fikrlar rivoji bo'yicha eng qadimiy manbalardan biri zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"dir. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda zardushtiylik paydo bo'lib, milodiy III asrgacha



hukmronlik qiladi. Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyo (Baqtriya, Xorazm) va Eronni (Midiya) ko'rsatadilar. Zardushtiylikda eng qadimgi davrlardan boshlab (miloddan avvalgi III-II-ming yilliklar) miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarigacha bo'lgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining diniy tasavvurlari aks etgan [1, 22-23].

O'zbek tilining falsafa terminlarini o'rganishda turkiy tilga oid eng qadimiy yozma manbaa Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari sanaladi.

Eng qadimgi turkiy xalq qo'shiqlari bizga qomusiy bilim sohibi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari orqali yetib kelgan. Turkiy xalqlar og'zaki ijod namunalarida vatanparvarlik, insoniylik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, ilm o'rganish, kasb-hunar egallashga da'vat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do'stlik, sadoqat, kamtarlik, fidoyilik kabi turli-tuman insoniy fazilatlar o'zining badiiy ifodasini topgan [1,34]. O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar yetib kelgan lug'atlar ichida 1074-1075-yili atoqli lug'atshunos Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan "Turkiy so'zlar devoni", ya'ni "Devoni lug'atit turk" ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi [2,16].

Jumladan, Devondagi falsafaga oid quyidagi terminlar tadqiqot uchun olindi: ажуи – dunyo, olam, jahon (I, 12), а:з – yaxshilik (I, 34), аринчу – gunoh, xato (I,22), ақі – saxiy, qo'li ochiq (I,31), бајат – tangri (III,54), бајпам – bayram, hayit kuni (o'g'uz) (III,54), басут – yordam, yordamchi, orqa suyanchiq, mehribon (I,58), билrä – hakim, hikmatshunos, olim (I,68), билirlik киші – bilimli odam (I,69), биті – osmondan nozil bo'lgan kitoblar (III,70), будун – xalq (I,76), бұзун – xalq, omma (I,77), бөгү – bilag'on, donishmand, aqlli (III, 75), бөгү билrä – bilag'on, donishmand, aqlli (III, 75), јазуқ – gunoh (III, 106), јазуқлуғ – gunohkor, gunohli (III,106), јалавач, јалавач – рауг'ambar (III,107), јалнуқ – mavjudot, odamlar, xalq (II, 109), јэк – shayton (III,125), јэл, јэлнік – jin (III,125), јэс – es, хотira (I,127), кіртү – rostlik, ишонч,эътиқод, ҳақиқат (I,162), өвүт – ўғит, насихат (I,192), өг – aql, ziyraklik (I,192), өгä – aqlli, bilimdon (I,192), өгүт – o'git, nasihat (I,193), өтлүк – o'git, nasihat (I,200), тавуш – tuyish, sezgi va harorat (I,241), қаршут – teskarilik, qarama-qarshilik, zidlik (I,354) [3].

Yurtimiz hududidagi falsafa ilmining rivojida mashhur qomusiy allomalarimiz Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari beqiyosdir.

Forobiy (taxallusi, asl ismi Abu Nasr ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy 873, Forob – 950, Damashq) – o'rta asrlar musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining eng yirik davomchisi va targ'ibotchisi. Qadimgi yunon ilm-fanining bilimdoni sifatida Arastuning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya" va mantiq sohasiga oid kitoblariga, Ptolimey, Aleksandr Afrodeziyskiy va boshqalarning axloq-odob, psixologiya, tabiiy fanlar bo'yicha yaratgan ilmiy risolalariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, uning Arastu falsafasini talqin etishdagi va mantiq sohasidagi ishlari shuhrat qozonib, Forobiyning "Al-muallimi soniy" ("Ikkinchi muallim") va "Sharq Aristoteli" kabi nomlarga sazovor bo'ldi. Borliq muammosini hal etishda "vujudi vojib"



va "vujudi mumkin" o'zaro nisbatiga murojaat qilish an'anasi Forobiy dahosiga taalluqlidir. Asosiy asarlari: "Substansiya haqida so'z" ("Kalom fi-l-javhar"), "Qonunlar haqida kitob" ("Kitob fi-n-navomis"), "Masalalar manbai" ("Uyun-ul-masoil"), "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" ("Kitob fi ihso al-ulum va al-ta'rif"), "Mantiqqa kirish kitobi" ("Kitob al-madxal ilal mantiq"), "Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z" ("Kalom fi ma'oni ism al-falsafa") va boshqalar.

Abu Ali Husayn ibn Abdulloh (lot. Avitsyenna, 980, Buxoro – 1037, Hamadon) – hakim, qomusiy alloma va mashhur mutafakkir. Tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, fiziologiya, axloqshunoslik kabi sohalarda qalam tebratgan. Ibn Sinodan bizga 280 dan ziyod asarlar meros bo'lib qolgan. Ibn Sinoning falsafiy fikrlariga ko'ra, barcha mavjudotning asosi va ibtidosi "vujudi vojib"dir, ya'ni Tangridir. Vujudi vojib – bu birinchi mohiyat, javhardir. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan axtarish o'rinsizdir. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma-xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi. Vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq. U mustaqil, yagona mohiyatdir. Uning zotida kamchilik va nuqsonlarning uchrashi imkoniyatdan tashqaridadir.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari uning amaliy falsafasida ko'rib chiqilgan. Arastu va Forobiy izidan borib, insonni ijtimoiy jonzot, deb ta'riflaydi. Kishilarning o'zaro manfaatli hamkorligi ular hayotining yagona tayanchidir. Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari o'z davrida muhim ijobiy rol o'ynadi va undan keyin ijod etgan mutafakkirlar dunyoqarashining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sinoning asosiy asarlari: "Tib qonuni", "Kitob ash-shifo", "Kitob un-najot", "Kitob al-insof", "Donishnomai Aloyi", "G'urozai tabiat", "Tadbiri manzil", "Risolai axloq", "Risolai ishq" va boshqalar [4, 140-141].

Garchi Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi dunyo tan olgan qomusiy olimlarimiz falsafaga doir ko'plab asarlar yozgan bo'lsa-da, ularning barchasi arab va fors tillarida yozilganligi sababli biz ularni o'zbek tili falsafa terminologiyasini o'rganish uchun asos sifatida ololmaymiz.

Shu sababli, biz tadqiqotni eski turkiy tildagi manbalardan boshlab o'rganishni lozim topdik. Shuningdek, hazrat Alisher Navoiy, Xondamir, Bobur va erkparvar jadidchilarimizning ham falsafiy fikrlarini nazardan qochirmadik.

O'zbek tilining falsafa terminologiyasini o'rganishda shartli ravishda: 1) qadimgi turkiy til davri (IX-XII asrlar); 2) XIV-XV asrlardagi manbalarda falsafa terminlari; 3) XV-XIX asrlar; 4) XX-XIX asrlarga boshlari kabi davrlarga ajratdik.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek tilining falsafa terminologiyasi hozirga qadar tilshunoslar tomonidan deyarli o'rganilmagan, mazkur mavzuda istiqlol davrida bironta ham tadqiqot olib borilmagan. Izlanishlar natijasida sho'rolar davrida mazkur mavzu doirasida birgina nomzodlik dissertatsiyasi yoqlanganligi aniqlandi. 1972-yilda Dilorom Rashidova tomonidan rus tilida "Философская терминология в произведениях К.Маркса и Ф.Энгельса (на материале русских и узбекских переводов их работ в аспекте сопоставления с немецким оригиналом)" ("K.Marks



va F.Engels asarlarida falsafa terminologiyasi(asl nemis tilidagi bilan rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarni solishtirish asosida") nomli nomzodlik dissertatsiyasi yozilgan bo'lib, mazkur ish hozirda Fanlar akademiyasining fundamental kutubxonasida saqlanmoqda. Garchi dissertatsiya davr va g'oyaviy jihatdan eskirgan bo'lsada, lekin tadqiqot uchun o'rganildi.

O'zbek tilining falsafa terminologiyasi tilshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganilmagan bo'lsa ham, o'zbek faylasuf olimlari davrlar davomida ulkan mehnatlarni amalga oshirishdi va ilm rivojiga salmoqli hissa qo'shishdi.

Jumladan, turli davrlarda o'zbek faylasuflari tomonidan bir necha marotaba lug'atlar tuzilgan va chop etilgan [5]. Shuningdek, falsafaga doir kitoblar, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Bu manbalarning yaratilishida I.Mo'minov, J.Tulenov, M.Xayrullayev, E.Yusupov, M.Abdullayeva, Q.Nazarov, A.Jalolov, Z.Davronov, B.To'ychiyev, A.Mo'minov, K.Bo'ronov, N.Shermuxeamedova, I.Karimov, M.Rustamova, D.Po'latova, M.Qodirov, M.Ahmedova, A.Abduhalimov, Sh.Shozamonov, V.Alimasov kabi faylasuf olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni Qoraxoniylar davrida yashab ijod qilgan mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk"dagi falsafaga oid terminlarni o'rganishdan boshlaymiz. O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar yetib kelgan lug'atlar ichida 1074-1075-yili atoqli lug'atshunos Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan "Turkiy so'zlar devoni", ya'ni "Devoni lug'atit turk" ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli, tadqiqot davomida aynan shu "Devon"dan ham foydalanildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). O'quv qo'llanma. -Toshkent: «Jahon print». 2013. - 532 b, 22-23, 34-betlar.
2. H.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. -T: Yoshlar nashriyot uyi, 2019, 16-bet.
3. Qarang. Devoni lug'otit turk. Indeks lug'at. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1966, 550 bet.
4. Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004, 140-141 betlar.
5. Filosofiya lug'ati. R.Abdurahmonov tarjimasini. Mas'ul muharrir O'zSSSR FAning muxbir a'zosi, falsafa fanlari doktori, prof. M.M.Xayrullayev. Ruscha nashrdan tarjima, "O'zbekiston", 1976 y; Falsafa qisqacha-izohli lug'at. "Sharq"- nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, T.-2004; Falsafa. Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "Sharq"- nashrit-matbaa



aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, T:.-2004; Falsafa. Ensiklopyedik lug'at.  
"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, T:.-2010.